

SANOAT KORXONALARNI MOLIVAVIY SAMARADORLIGI VA INNOVATSION SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

G.A. Xayitbayeva

TDIU “Umumiqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va innovatsion salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamli yechimlardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion salohiyat, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamli texnologiyalar, modernizatsiya, barqaror rivojlanish.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish, ularning samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlab, ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar izchil davom etmoqda. Bu borada belgilangan dasturlar va chora-tadbirlar bajarilib, sanoat sohasini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Sanoat – bu har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismi hisoblanadi. Sanoatning jamiyat ishlab chiqarishda mustaqil soha sifatida paydo bo‘lishi, tarixiy jihatdan qishloq xo‘jaligidan hunarmandchilikni ajralib chiqish jarayoni bilan bog‘liq. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sanoatning jadal o‘shishiga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tubdan o‘zgarishiga, oddiy kooperatsiyaning manufakturaga, keyin esa yirik mashina industriyasiga – fabrikalarga aylanishiga olib keldi.

Iqtisodiyot uchun rivojlangan sanoat tarmog‘i katta ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyotda o‘shish shunchalik yuqori bo‘ladi, mamlakat xilma xil va murakkab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qodir bo‘lsa, uning farovonlik darajasi va mamlakat iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Agarda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmog‘i innovatsiyalarning joriy etilishini, mehnat unumdorligi va diversifikatsiyalangan eksportni oshishini ta‘minlab bersa, rivojlanayotgan

mamlakatlarda - turmush darajasining oshishiga yo'l ochib berilishini ta'minlaydi.

Zamonaviy sanoat tarmog'i yuqori ixtisoslanganlik darajasi bilan ajralib turadi. Mehnatning ijtimoiy chuqur taqsimlanishi natijasida sanoatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ko'plab sohalari paydo bo'ladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat tarmog'i quyidagi sektsiyalarga bo'linadi:

- tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;
- qayta ishlash sanoati (ishlab chiqaradigan sanoat);
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;
- suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati ko'mir, lignit, neft, tabiiy gaz, metall rudalarini qazib olish va tog'-kon sanoatining boshqa turlari bilan shug'ullanadigan korxonalar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Qayta ishlash sanoatiga oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, tamaki, to'qimachilik, rezina va plastmassa mahsulotlari, kiyim-kechak, charm va kimyoviy mahsulotlar, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori darmonlar, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari, yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel, boshqa noruda mineral mahsulotlar, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish, qora va rangli metallar va ulardan buyumlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar kiritiladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari elektr energiya, bug', gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish, yetkazib berish, tarqatishni ta'minlaydi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari suvni qayta ishlash (tozalash), suv bilan ta'minlash, oqova suvlarini tozalash, transportirovka qilish va tozalash, chiqindi tashlaydigan o'ralarni tozalash va ishlov berish, chiqindilarni yig'ish, tozalash va utilizatsiya qilish, rekultivatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanadilar.

METODOLOGIYA

Dunyoda qayta ishlash sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim va ahamiyatga ega tarmoq sifatida qaraladi. Sanoatning kuchli qayta ishlash sektori mamlakatning texnologik qudratini ifodalaydi. Uning kamayishi yoki qisqarishi iqtisodiyotning pasayishi belgisi sifatida qaraladi. Bu esa, o'z navbatida qayta ishlash sanoatining muhim tarmoq ekanligini va ahamiyatligini ifodalaydi. Qayta ishlash sanoatining ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lishi, Germaniyada XVI asr o'rtalariga to'g'ri keladi, ya'ni nemislarning iqtisodiy fikrlashi faol rivojlanib borishi bilan sodir bo'ladi. Uning negizida, millatning intellektual rivojlanishi muhimligi to'g'risida gapirgan F.L. Zekendorf ta'limoti yotadi. Uning fikricha, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini faqatgina odamlarning intellektual rivojlantirish evaziga

ta'minlash mumkin, shuning uchun hukumat nafaqat ularni boshqarishi lozim, balki intellektual salohiyatini rivojlantirishi zarur[1].

Shu bilan birga, 1581 yilda J. Xeyls inglizlarning XVI asrdagi iqtisodiy siyosatini tanqid qilib, "o'z xom-ashyomizni begonalarga qayta ishlash uchun yuborib, undan tayyorlangan mahsulotni begonalardan qaytib sotib olishga yo'l qo'yish"ga katta aqil kerak emasligi to'g'risida yozgan (E.S.Reynertning "Qanday boy davlatlar boy bo'lgan va kambag'al mamlakatlar kambag'alligicha qolmoqda"dan tekst parchasi, M., 2011 yil). Undan keyin ingliz iqtisodchisi J.Keri umuman mamlakatdan xom-ashyo tovarlarini eksport qilishga o'lim jazosini joriy etilishini taklif qilgan.

A.Smitdan oldin ijod qilgan aksariyat iqtisodchilar mamlakatning iqtisodiy siyosati, xom-ashyo sanoatiga emas, birinchi navbatda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini ishontirishga yo'naltirilgan.

Ularning fikricha faqatgina qayta ishlash sanoatining rivojlanishi dolzarb muammolarning yechimi hisoblanadi.

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

Mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D.Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan A.Abduhamidov, U.Muxitdinov, A.A.Ortiqov, X.Ishbutaeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, X.D.Xujakulov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan.

Xususan, A.Ortiqov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"[2] ga, M.P.Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"[3] ga, E.X.Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"[4] ga, bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish, investitsiyalardan samarali foydalanish masalalarining ahamiyatli jihatlarini M. Po'latova ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan[5]. Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish, uni hududlar miqyosida rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari juda ko'p olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. N.N. Burtsov va M. Best ishlarida sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq muhim masalalarga e'tibor berilgan[6]. G.A. Vlaskin va E.B. Lenchuk ishlarida sanoat siyosatini ishlab chiqishda va yuritishda sanoatni innovatsion rivojlantirishning nazariy-amaliy tomonlari qaralgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi

xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, xususiylashtirishni rag'batlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda printsiptial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish lozim. Shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatdoshligini ta'minlash, mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishdan iborat mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini rivojlantirish yo'llari belgilangan.

Sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligi va innovatsion salohiyatini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot doirasida respublikamiz sanoat korxonalarining moliyaviy holati, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda innovatsion faoliyat darajasi kompleks tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari barcha korxonalarda bir xil darajada yuqori emas. Xususan, ayrim korxonalarda aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari past darajada qolmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, eskirgan texnologiyalardan foydalanish hamda boshqaruv tizimidagi kamchiliklar qayd etildi.

Moliyaviy tahlil natijalariga ko'ra, korxonalarda xarajatlar tuzilmasida xomashyo va energiya resurslari ulushi yuqori bo'lib, bu esa umumiy tannarxning oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada emasligi, debitorlik qarzlarning ortib borishi ham korxonalarining likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zamonaviy moliyaviy boshqaruv usullarini joriy etishni talab etadi.

Innovatsion salohiyat tahlili esa sanoat korxonalarida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga ajratilayotgan mablag'lar ulushi hali past ekanligini ko'rsatdi. Ko'plab korxonalarda innovatsiyalar asosan texnologik yangilanishlar bilan cheklanib, mahsulot innovatsiyasi va boshqaruv innovatsiyalari yetarlicha rivojlanmagan. Natijada, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi past darajada qolmoqda.

Shu bilan birga, ayrim ilg'or sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali sezilarli ijobiy natijalarga erishilayotgani aniqlandi. Bunday korxonalarda mehnat unumdorligi oshib, ishlab chiqarish tannarxi kamaymoqda hamda eksport salohiyati kuchaymoqda.

Jadval 1.

Sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligi va innovatsion salohiyatini oshirish yoʻnalishlari

№	Yoʻnalishlar	Mazmuni	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
1	Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish	Xarajatlarni optimallashtirish, foydani oshirish	Byudjetlashtirish, moliyaviy nazorat tizimini joriy etish	Rentabellik oshadi
2	Investitsiya faoliyatini rivojlantirish	Kapital qoʻyilmalarni kengaytirish	Investitsiya loyihalarini jalb qilish, davlat dasturlaridan foydalanish	Ishlab chiqarish hajmi ortadi
3	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish	Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish	Mahsulot sifati va samaradorlik oshadi
4	Energiya va resurs tejamkorlik	Resurslardan samarali foydalanish	Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish	Xarajatlar kamayadi
5	Kadrlar salohiyatini oshirish	Malakali mutaxassislarini tayyorlash	Treninglar, qayta tayyorlash dasturlari	Mehnat unumdorligi oshadi
6	Innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni qoʻllab-quvvatlash	Grantlar, startap loyihalar	Yangi mahsulotlar yaratiladi
7	Raqamli transformatsiya	Boshqaruv va ishlab chiqarishni raqamlashtirish	ERP, CRM tizimlarini joriy etish	Boshqaruv samaradorligi oshadi
8	Eksport salohiyatini oshirish	Tashqi bozorlarga chiqish	Marketing strategiyalari, sertifikatlash	Valyuta tushumlari ortadi

Tahlil natijalari asosida quyidagi muhim tendensiyalar aniqlandi:

Birinchidan, moliyaviy samaradorlikni oshirishda resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xarajatlarni boshqarishning zamonaviy usullarini, jumladan, "lean production" va "cost management" tizimlarini joriy etish korxonalarning foydaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, innovatsion rivojlanish bevosita moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion faoliyatni kuchaytirgan korxonalarda rentabellik darajasi yuqoriroq bo'lishi kuzatildi. Bu esa innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, sanoat korxonalarida investitsiya faolligi bilan moliyaviy samaradorlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish orqali uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlari moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. ERP tizimlari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob platformalari va "big data" tahlillari korxonalarda qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Olingan natijalarga asoslanib, sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligi

va innovatsion salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish tizimini joriy etish;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish va ITTKIga ajratiladigan mablag'larni oshirish;
- raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish;
- investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- kadrlar malakasini oshirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy samaradorlik va innovatsion salohiyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni kompleks ravishda rivojlantirish zarur. Bu esa nafaqat alohida korxonalar, balki butun milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Mazkur holatlar sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanish omillari bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanishning funksional vazifalari mazkur salohiyatni belgilovchi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. Bu innovatsiya rivojlanish indikatorlari hisoblanadi. Avvalo, innovatsiya rivojlanish indikatorlari iqtisodiy, ilmiy hamda faol innovatsion faoliyat sohalariga bo'lingan holda o'rganiladi.

2-jadval

Innovatsion rivojlanishga o'tish zaruratini belgilovchi omillar va funksional vazifalar[7]

Omillar	Funksional vazifalar
Iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy iqtisodiy inqirozlarning vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turishi	Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tangliklarning kelib chiqishi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning inqirozdan chiqish uchun o'z faoliyatiga ixtirolar va yangi yondashuvlarni qo'llashning dolzarb masalaga aylanishi
Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining moliyaviy mustaqilligi va raqobatbardoshligini ta'minlash	Bozor ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning raqobatdoshligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish
Tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi	Resurslardan tejamkorlik bilan samarali foydalanish va shu maqsadda zamonaviy texnologiya, standartlarni ishlab chiqarilishi hamda ishlab chiqarishning alternativ usullariga o'tish
Aholi sonining uzluksiz ravishda oshib borishi	Mamlakatlar aholisining o'sishi, ehtiyojlarning tabiiy va o'z-o'zidan uzluksiz oshib borish tendentsiyasining vujudga kelishi

Milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasining yuqoriligi	Davlat va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlash uchun asosiy fondlarni yangilash muddatlarini qisqartirish orqali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish
---	---

Mazkur jadvaldan kelib chiqib, korxonalarda innovatsion rivojlanish darajasini jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion faoliyat sohalaridagi ayrim ko'rsatkichlarga qarab aniqlash mumkin.

Agar mamlakat iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga davlat tomonidan aralashuv darajasi past bo'lsa, bunda sog'lom raqobat va mustaqil investitsion muhit uchun huquqiy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Natijada milliy xo'jalik tarmoqlaridagi kapital oqimining bir tarmoqdan boshqasiga o'tishi tezlashadi.

Shuningdek, mazkur iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishning barcha iqtisodiy asoslari yaratiladi. Shundan kelib chiqib, jahon mamlakatlarida sanoat korxonalari faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy globallashtirish sharoitida innovatsion rivojlanishning quyidagi uchta asosiy modeli qayd etiladi:

- makroiqtisodiy miqyosda ilmiy ishlab chiqarish davrining barcha bosqichlarini o'zida mujassab etgan maqsadli loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish modeli (AQSh, Angliya va Frantsiya mamlakatlari);

- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini mo'tadil innovatsion muhit yaratish orqali optimallashtirish hamda yangilik va ixtirolarni keng tarqatishga ixtisoslashgan model (Germaniya, Shvetsiya va Shveytsariya mamlakatlari);

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali yangiliklar yaratishni rag'batlantiruvchi model (Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari).

Chunki, barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolishni innovatsiyalarsiz amalga oshirish murakkab bo'lib, shu nuqtai nazardan O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning birinchi modeli, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini iqtisodiy amaliyotga tatbiq etish yo'lidan borildi. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolar saqlanib qolayotgan bir vaqtda O'zbekistonda mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda, aholi turmush darajasi barqaror o'smoqda va yurtimizning jahon bozorlaridagi mavqei yanada mustahkamlanmoqda.

Chunki, O'zbekiston iqtisodiyotini kelgusida rivojlantirishni asosiy muammolaridan biri sanoat korxonalariga xos bo'lgan globallashtirish sharoitida raqobatbardosh va samarali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi. Bunday natijalarga yuqori texnologik ilmiy ishlab chiqarishdan foydalanishga asoslangan holda iqtisodiyotning etakchi tarmoq va bo'limlarini modernizatsiya va texnik yangilash, yuqori malakali mutaxassis va ilmiy kadrlarni tayyorlash sohasini rivojlantirish hamda intellektual mulk bozorini shakllantirish orqali erishiladi.

Sanoat korxonalari innovatsion rivojlanishning funksional vazifalari bo'lib hamkorlikdagi aloqalar hisoblanadi. Xususan, har yili muntazam ravishda o'tkazilayotgan fan hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi kooperatsion aloqani ta'minlashning amaliy mexanizmiga aylanib ulgurgan respublika innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi korxonalar hamda ilmiy tashkilotlar va oliy

ta'lim muassasalari orasida o'zaro manfaatli kooperatsion aloqalar o'rnatish imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida sanoat tarmoqlari va sohalarning innovatsion rivojlanishiga muhim turtki bo'lmoqda.

Sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanish omillaridan keng foydalanish va funksional vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

-birinchidan, innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Bunda innovatsion faolligini rivojlantirish uchun eng qulay mablag'lar bank va boshqa ixtisoslashtirilgan moliyaviy tashkilotlarning maqsadli kreditlari hisoblanadi, chunki ular imtiyozli sharti bilan beriladi. Shuningdek, investitsiyalarning asosiy manbasi sanoat korxonasining o'z mablag'lari hisoblanadi. Shu boisdan ham, moliyalashtirishda ana shu jihatlarni alohida inobatga olish darkor;

-ikkinchidan, innovatsion jarayonlarning huquqiy bazasini yaratish. Bunda intellectual mulk ob'ektlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish innovatsion faoliyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham, kichik innovatsion tadbirkorlik subektlari uchun intellektual mulkni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Bilamizki, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati va faolligini oshirish milliy iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi, aholi turmush darajasi va farovonligining yanada oshirilishi olib borilayotgan izchil davlat siyosatining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining globallashuv ko'lami tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday kon'yunktura o'zgarishlariga qarshi tura oluvchi, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslashuvchi sanoat korxonalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu boisdan ham, O'zbekiston iqtisodiyotini kelgusida rivojlantirishni asosiy muammolaridan biri globallashuv sharoitida raqobatbardosh va samarali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi. Bunday natijalarga erishish yuqori texnologik ilmiy ishlab chiqarishdan foydalanishga asoslangan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoq va bo'limlarini modernizatsiya va texnik yangilash, yuqori malakali mutaxassis va ilmiy kadrlarni tayyorlash sohasini rivojlantirish va intellektual mulk bozorini shakllantirish orqali erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishida boshqa tarmoqlar singari sanoat tarmoqlari va ularda mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsion holda diversifikatsiyalash hamda uning faolligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki, sanoat tarmog'i aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda juda katta rol o'ynaydi. Qolaversa, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash natijasida import o'rnini bosa oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan aholi turmush darajasi sifatini yaxshilashga ko'maklashish mumkin. Bu esa strategik loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2023). "Ўзбекистон-2030"

стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-158-сонли Фармон. Тошкент.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2022). *2023 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақида Олий Мажлисга Мурожаатнома*. Тошкент.
3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. (2022). *Фискал стратегия: 2023–2025 йиллар*. Тошкент.
4. Азизов, У. Ў. (2019). Изчил солиқ сиёсати – иқтисодий ривожланиш омили. *Илмий-амалий конференция материаллари*. Тошкент: Iqtisod-Moliya.
5. Бердиева, У. А. (2019). Иқтисодиётни эркинлаштиришда солиқларнинг йиғилувчанлигини ошириш йўллари. *Молия*, (5), 107–115.
6. Абдуллаев, Ё. А. (2020). *Корхоналар молияси*. Тошкент: Iqtisod-Moliya.
7. Каримов, Н. Х. (2021). Саноат корхоналарида молиявий бошқарув самарадорлигини ошириш. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, (3), 45–52.
8. Тўхтаев, Ш. Р. (2020). Инновацион иқтисодиёт шароитида саноатни ривожлантириш йўналишлари. Тошкент: Фан.
9. Рахимов, А. А. (2022). Саноат корхоналарида инвестицион фаолият самарадорлигини баҳолаш. *Молия ва банк иши*, (2), 33–40.
10. Юсупов, Б. С. (2021). Корхоналарда инновацион фаолиятни ривожлантириш механизмлари. *Иқтисодий тадқиқотлар журналі*, (4), 60–68.
11. Хайдаров, М. Қ. (2019). *Инновацион менежмент асослари*. Тошкент: Фан ва технология.
12. Мирзаев, Ш. М. (2020). Саноат тармоқларида рақамли иқтисодиётни жорий этиш. *Иқтисодиёт ва таълим*, (6), 22–29.
13. Сатторов, О. Н. (2021). Корхоналар молиявий барқарорлигини таъминлаш омиллари. *Молия*, (3), 50–56.
14. Набиев, Х. А. (2022). Саноат корхоналарида рақобатбардошликни ошириш стратегиялари. Тошкент: Iqtisodiyot.
15. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2023). *Саноат тармоқлари ривожланиши бўйича статистик тўплам*. Тошкент.